XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 23 - may VI-49-85-5-71-K/22 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumanidagi “Dehqonobod” mahallasini “Yangi Varq” deb qayta nomlash haqidagi taklifni tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qaroriga muvofiq viloyatdagi geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida”gi masala yuzasidan Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni Davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 24-fevraldagi 01-14-218-sonli xulosasiga muvofiq xalq deputatlari Karmana tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni Davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 24-fevraldagi 01-14-218-sonli xulosasiga asosan Karmanat tumanidagi “Dehqonobod” mahallasi nomi “Yangi Varq” deb o‘zgartirilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Savurov)ga mahalla fuqarolar yig‘iniga eski muhr va shtampi topshirilgandan keyin yangidan muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnoma berish topshirilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali, tuman qurilish bo‘limi nomi o‘zgargan fuqarolar yig‘ini bilan birgalikda bir oy muddatda geografik ob’ekt nomi qayd qilingan peshlavhani o‘rnatsin.

4. Belgilansinki, geografik ob’ekt nomi qayd qilingan peshlavhani o‘rnatish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

5. Mazkur qaror “Karmana ovozi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Kenjayev hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi M.Toshov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **F.Umarov**